

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:

3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 70-sahifa.
2026-yil, avgust.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHI BO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70





SURXONDARYO VILOYATIDA QISHLOQ XO'JALIGINING AMALDAGI IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: abdurayimovkamoliddin8@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-9009-3357>

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligining 2015–2025 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Viloyat yer fondi tarkibi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish holati va xo'jalik toifalari bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar o'rganilgan. Tahlillar natijasida viloyatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi barqaror o'sganligi, yer resurslaridan samarali foydalanish borasida ijobiy siljishlar kuzatilganligi aniqlangan. Shu bilan birga, tarmoqning YalIMdagi ulushi pasaygan bo'lsa-da, mutloq hajmda o'sish davom etmoqda.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, iqtisodiy tahlil, yer fondi, YalIM, Surxondaryo viloyati, suv tejovchi texnologiyalar, fermer xo'jaliklari.

Аннотация. В статье проведён анализ экономических показателей сельского хозяйства Сурхандарьинской области за 2015–2025 годы. Изучены структура земельного фонда, объём сельскохозяйственной продукции, доля в ВВП, внедрение водосберегающих технологий и структурные изменения по категориям хозяйств. Результаты анализа показывают устойчивый рост производства в аграрном секторе региона и положительные сдвиги в эффективном использовании земельных ресурсов. Несмотря на снижение доли отрасли в ВВП, абсолютные объёмы производства продолжают увеличиваться.

Ключевые слова: сельское хозяйство, экономический анализ, земельный фонд, ВВП, Сурхандарьинская область, водосберегающие технологии, фермерские хозяйства.

Abstract. The article analyzes the economic indicators of agriculture in Surkhondaryo region for 2015–2025. The structure of land fund, agricultural output volume, share in GDP, implementation of water-saving technologies, and structural changes by farm categories are examined. The analysis results show stable growth in agricultural production in the region and positive progress in efficient land use. Although the sector's share in GDP has decreased, absolute production volumes continue to grow.

Keywords: agriculture, economic analysis, land fund, GDP, Surkhondaryo region, water-saving technologies, farms.

KIRISH

Agrar sektorni innovatsion rivojlantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, qulay agrobiznes muhitini yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, kooperatsiya munosabatlarini mustahkamlash, bozor mexanizmlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda xalqaro ilg'or tajribalarni o'zlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz agrar sohasida bir qator ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va uni joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda bozor tamoyillarini keng qo'llash, eksport salohiyatini oshirish, sifat nazorati tizimini takomillashtirish, davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish va





investitsion jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini yaxshilash, qishloq xo'jaligi boshqaruvi tuzilmasini zamonaviylashtirish, ilm-fan, ta'lim va maslahat xizmatlarini ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish, qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish va statistika tizimini shaffoflashtirish orqali tarmoq rivojiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida agrar sektorda innovatsiyalarning nazariy va uslubiy asoslari tuzilmasini iqtisodiy tahlil etish hamda samaradorligini oshirish, ekonometrik modellashtirish va prognozlash masalalari N.M.Soatov, Yo.A.Abdullaev, B.Berkinov, T.Sh.Shodiev, A.Abdug'aniev, G'X.Qudratov, A.M.Jo'raev, R.H.Husanov, A.Qodirov, F.Dusmatov, Q.Choriev, N.S.Xushmatov, A.X.Burhonov, Ch.Murodov, F.Nazarova, U.Umurzoqov, K.X.Jumayev, I.K.Jumaev, Sh.T.Ergasheva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida tizimli tekshiruv, statistik kuzatuv, o'rtacha sonli miqdorlar, statistik axborotlarni umumlashtirish va guruhlariga bo'lish, vaqtli ketma-ketliklar, o'zaro aloqadorlik va regressiyaviy bog'liqlik, ekonometrik modellarni qurish hamda oldindan prognozlash kabi ilmiy usullar foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi qiymati (YAIM agriculture output“ yoki qo'shilgan qiymat” (value added)) doimiy narxlarda hisoblanadi va milliy hisoblar tizimiga kiradi. Masalan, 2024 yilda qishloq xo'jaligi qo'shilgan qiymati: $\approx 38,074$ trln so'm (doimiy narxlarda, 2025 yilda iqtisodiyot tarkibida qishloq xo'jaligi ulushi yuqori bo'lib, ≈ 306 trln so'm (YaIM tarkibida, doimiy narxlarda) [1] tashkil qilgan. 2015–2025 yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi real (doimiy narxlarda) o'sish tendensiyasiga ega, o'sish asosan: intensiv texnologiyalar, fermer xo'jaliklarining transformatsiyasi, bozor islohotlari bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari real hajmini (doimiy narxlarda) o'sish tendensiyasini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$Y_{t\text{const}} = (Y_{t\text{current}} / \text{Deflator}_t) \times 100$$

Bu yerda:

$Y_{t\text{const}}$ - taqqoslama narxlarda qiymat,

$Y_{t\text{current}}$ - joriy narxlarda,

Deflator_t - qishloq xo'jaligi deflyatori.

Masalan, World Bank (constant prices) ma'lumotlariga asosan 2024 yilda qishloq xo'jaligida hisoblangan qo'shilgan qiymat: ≈ 33.23 mlrd dollarni (2015 doimiy narxlarda) tashkil qilgan.




1-jadval

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida hisoblangan qo'shilgan qiymatning dinamikasi (constant 2015 prices)

Yillar	Qiymat (mlrd \$)	O'sish (%)	Indeks (2015=100)
2015	25.19	—	100
2016	26.74	1,159	101,2
2017	27.05	0,259	101,4
2018	27.12	3,060	104,5
2019	27.95	2,862	107,5
2020	28.75	3,965	111,7
2021	29.89	3,613	115,8
2022	30.97	4,036	120,5
2023	32.22	3,135	124,3
2024	33.23	3,220	128,3
2025*	34.3 (baholash)	3,207	134,5

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida 2015–2025 yillar mobaynida qo'shilgan qiymat o'zgarmas baholarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu davr mobaynida real o'sish qariyb 30–35 foizni tashkil qilgan bo'lib, yillik o'rtacha o'sish 3–4 foiz darajasida qayd etilgan. Indikatorlar tahlili shuni bildiradiki, 2025 yilga borib qishloq xo'jaligining qo'shilgan qiymati 2015 yilga nisbatan sezilarli ravishda oshgan. Bu esa tarmoq samaradorligi ortganligi va olib borilgan iqtisodiy o'zgarishlarning ijobiy ta'siridan dalolat beradi. Mazkur o'sishni ta'minlagan asosiy omillar sifatida agrar sohadagi islohotlar, fermer xo'jaliklarini optimallashtirish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvni ko'rsatish mumkin. Qishloq xo'jaligida real o'sishning mustahkamligi sohaning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini isbotlaydi. O'zgarmas narxlardagi ko'rsatkichlar inflyatsiyaning ta'sirini inkor etgan holda, sohaning asl rivojlanish jarayonlarini to'g'ri ifodalaydi.



Manba: muallif hisob-kitoblari.


1-rasm. O'zbekistonda doimiy narxlarda hisoblangan yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti (estimation model)

O'zbekistonda yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti (estimation model) doimiy narxlarda tayyor berilmaganligi sababli biz bu ko'rsatkichni quyidagi formula yordamida hisobladik (amaliyotda qishloq xo'jaligida oraliq iste'mol $\approx 25\text{--}35\%$).

$$\text{Gross Output} \approx \text{Value Added} \times 1.25 - 1.35$$

2015-2025 yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotidagi ulushi pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2015 yilda ushbu ko'rsatkich milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra 30,0% ni; 2016 yil 29,0% ni; 2017 yil 29,0% ni; 2018 yil 29,7% ni; 2019 yil 28,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 27,0% ni, 2021 yil 26,9% ni; 2022 yil 25,1% ni, 2023 yil 24,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 19,2% gacha kamaygan, 2025 yil uchun esa mavjud iqtisodiy tendensiyalar asosida ushbu ko'rsatkich 17,3% ni tashkil qildi. Bu pasayish avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qisqarishi bilan emas, balki boshqa tarmoqlarning, sanoat, xizmat ko'rsatish, qurilish, saqlash, axborot va aloqa sohalarining yuqori sur'atlarda o'sishi bilan izohlanadi. So'nggi yillarda qayta ishlash va sanoatni rivojlantirish sektorlarining kengayishi YaIM tatki bidagi korxonalarning ulushini oshirmoqda, qishloq xo'jaligi mutloq hajmda o'sib borayotgan bo'lsada uning YaIM dagi nisbiy ulushi kamaymoqda (2-rasm).

Respublika qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi



Manba: statuz., <https://data.worldbank.org/jahon> banki hisoboti). O'ZA, O'zbekiston suv xo'jaligi statistikasi, CAWater-Info, Qishloq xo'jaligi vazirligi.

2-rasm. Respublika qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Shuningdek qishloq xo'jaligida band bo'lganlar ulushining (3,5%) pasayishi mexanizatsiya, klasterlash va mehnat unumdorligining oshishi bilan izohlanadi.

Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini qo'llashga doir loyihalarni ro'yobga chiqarish maqsadida 5 yil imtiyozli davr bilan kredit berish belgilab qo'yilgan. Natijada suv tejoychi texnologiyalar o'rnatilgan maydonlar hajmi ortib bormoqda. Bugungi kunda suv tejash uskunalarini ishlab chiqaruvchi mahalliy 60 ta korxona mavjud bo'lib, mahalliy lashtirish darajasi 80 foiz, yillik chiqarish quvvati 250–300 ming gektarga yetgan. Shu tufayli respublika bo'yicha umumiy

2,5 million gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar qo'llanilmoqda. Yana 1,6 million gektar maydonda lazer tekislash ishlari amalga oshirilgan. Suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlarning kengayishi suv resurslari kamchiligi sharoitida davlat islohotlarining samarali amaliyoti sifatida qaraladi.

Qishloq xo'jaligida tarkibiy rivojlanish amalga oshirilayotgani ham ushbu jarayonga ta'sir ko'rsatmoqda. Paxta va g'allaga yo'llangan ekin maydonlarining qisqarishi, yuqori qiymatga ega bo'lgan meva –savzavot va exportbop mahsulot ulushining ortishi qishloq xo'jaligi sektorining ichki tuzilmasini o'zgartirmoqda. Bu esa YaIM dagi qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlarga nisbiy ravishda ta'sir ko'rsatmoqda. Aslida qishloq xo'jaligi sektorida o'sish kuzatilmoqda.

Ya'ni O'zbekistonda YaIM joriy narxlarda 2015 yilda 250545 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 75200 mlrd so'mni, 2014 yilning mos davrida nisbatan 100.0% o'sishni qayt etgan. 2016 yilda 302537 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 87700 mlrd so'mni, 2015 yilning mos davrida nisbatan 116,6% o'sishni qayt etgan. 2017 yilda YaIM 406649 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 117900 mlrd so'mni, 2016 yilning mos davriga nisbatan 134,4% o'sish. 2018 yilda YaIM 511838 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 152000 mlrd so'mni, 2017 yilning mos davriga nisbatan 128,9% o'sish. 2019 yilda YaIM 602552 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 168700 mlrd so'mni, 2018 yilning mos davriga nisbatan 111,1% o'sish. 2020 yilda YaIM 705077 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 190400 mlrd so'mni, 2019 yilning mos davriga nisbatan 112,8% o'sish. 2021 yilda 861171 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 229000 mlrd so'mni, 2020 yilning mos davriga nisbatan 120,2% o'sish hamda 2022 yilda 1041878 mlrd so'm, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 261500 mlrd so'mni, 2021 yilning mos davriga nisbatan 114,1% o'sish, qayt etilgan.

2-jadval

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining YaIMdagi ulushining yillar kesimida o'sish sur'ati % da

Yillar	YaIM (mlrd so'mda, joriy narxlarda)	Qishloq xo'jaligining ulushi (mlrd so'mda, joriy narxlarda)	(O'tgan) yilning mos davriga nisbatan o'sish % da
2015	250 545	75 200	100,0
2016	302 537	87 700	116,6
2017	406 649	117 900	134,4
2018	511 838	152 000	128,9
2019	602 552	168 700	111,1
2020	705 077	190 400	112,8
2021	861 171	229 000	120,2
2022	1 041 878	261 500	114,1
2023	1 261 806	306 700	117,2
2024	1 535 432	353 000	115,0
2025*	1 849 650	407 000	115,2

Manba: stat.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



2023 yilda YaIM 1 261 806 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 306 700 mlrd so'mni. 2022 yilning mos davriga nisbatan 117,2% o'sish. 2024 yilda 1535432 mlrd so'mni, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 353000 mlrd so'mni, 2023 yilning mos davriga nisbatan 115,0% o'sish hamda 2025 yilda 1849650 mlrd so'm, shundan qishloq xo'jaligining umumiy hajmi 407000 mlrd so'mni, 2024 yilning mos davriga nisbatan 115,2% o'sish, qayt etilgan (2-jadval).

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2015–2025 yillarda YAIM hajmi nominal qiymatda qariyb 7,4 baravar oshgan. Eng katta o'sish 2021-yildan keyingi davrda kuzatilgan. Bu o'sishga asosan sanoat, xizmatlar sohasi, qurilish va investitsiyalar hajmining ortishi asosiy omil bo'lgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi hajmi teng YAIM ko'paytirilgan qishloq xo'jaligining ulushida shaklida hisoblangan (2024–2025) ko'rsatkichlar dastlabki baholash va prognoz xarakteriga ega bo'lsada tarmoq hajmi nominal jihatdan muntazam oshib borgan. Lekin YAIMdagi ulushi pasayib borgan, chunki keyingi vaqtlarda respublikamizda sanoat va xizmatlar sohasi tezroq rivojlanib bormoqda. 2015 yilda iqtisodiyotning qariyb 30 % ini tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich taxminan 17,3 % ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichni biz 2015 yil bazis narxlari asosida hisoblaganimizda (taqqoslama narxlar inflyatsiya ta'sirini chiqarib tashlab) tarmoqning haqiqiy o'sishini ko'rish mumkin. Yani 2015–2025 yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining real hajmi taxminan 1,7 baravar oshgan. Buning asosiy sabablari sifatida real o'sish sur'atlari barqaror bo'lganligi, suv tejovchi texnologiyalar, intensiv bog'dorchilik va klaster tizimi rivojlanishi, hamda so'nggi yillarda hosildorlik(unumdorlik) oshishi ta'sir qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizning janubiy mintaqasida joylashgan Surxondaryo viloyatining maydoni 20,1 ming km² (2 009 911 gektar), aholisi esa 2 945 512 kishini tashkil qiladi. Viloyat respublika iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash sanoati bo'yicha muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadvalda Surxondaryo viloyati yer fondining asosiy toifalari kesimida 2019–2025 yillarda sodir bo'lgan o'zgarishlar aks ettirilgan. Qishloq xo'jaligi yerlarining maydoni 2019-yildagi 270,8 ming gektardan 2025-yilda 280,1 ming gektarga ko'tarilib, 9,3 ming gektar yoki 3,4 foizga oshgan. Bu o'zgarish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish va yer resurslaridan unumli foydalanishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasidir. Sug'oriladigan ekin maydonlari 227,6 ming gektardan 243,0 ming gektarga yetib, 15,4 ming gektar yoki 6,8 foizga ko'paygan. Bu ko'rsatkich viloyatda melioratsiya chora-tadbirlari, sug'orish tizimlarini yangilash va suv resurslaridan samarali foydalanish borasidagi ishlarning ijobiy samarasini namoyon qiladi. Lalmikor ekin yerlarida esa aksincha, maydon 43,2 ming gektardan 37,1 ming gektarga qisqargan bo'lib, umumiy kamayish 6,1 ming gektar yoki 14,1 foizni tashkil etgan. Bu holat ayrim lalmikor yerlar sug'oriladigan maydonlarga aylantirilgani va yer uchastkalaridan foydalanish unumdorligi oshirilgani bilan izohlanadi. Tomorqa



yerlarining maydoni 58,9 ming gektardan 65,7 ming gektarga ko'tarilib, 11,5 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu aholi sonining ko'payishi va uy xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi faolligi bilan bog'liq. Ko'p yillik daraxtzorlar maydoni 29,8 ming gektardan 37,2 ming gektarga yetib, 24,8 foizlik yuqori o'sishni ko'rsatgan. Bu esa bog'dorchilik va uzumchilik tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Yaylovlar maydoni 829,3 ming gektardan 823,2 ming gektarga biroz qisqarib, kamayish 0,7 foizni tashkil qilgan. Bunday o'zgarish ayrim yaylov yerlarining boshqa toifalarga o'tkazilgani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bo'z yerlar maydoni 460 gektardan 230 gektarga qisqarib, deyarli 50 foizga kamaygan. Bu foydalanilmayotgan yer uchastkalarini o'zlashtirish va iqtisodiy muomalaga kiritish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning natijasidir. O'rmonzorlar maydoni 226,9 ming gektardan 237,4 ming gektarga yetib, 4,6 foizlik o'sishga erishilgan. Bu holat ekologik barqarorlikni ta'minlash, cho'llanishga qarshi kurash va yashil hududlarni kengaytirish siyosatining samarali natijasi sifatida baholanishi mumkin.


Tahlil natijalari Surxondaryo viloyatida 2019–2025 yillarda yer fondidan foydalanish tarkibi ijobiy tomonga o'zgarganligini ko'rsatadi. Ayniqsa sug'oriladigan yerlar, tomorqa xo'jaliklari, ko'p yillik daraxtzorlar va o'rmonzorlar maydonining oshishi agrar sektorni diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga lalmikor va bo'z yerlar maydonining qisqarishi yer resurslaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratgan (3-jadval).

3-jadval

Surxondaryo viloyati yer fondi tarkibi(2019-2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Jami yer maydoni	(ming) gektar	2009911	2009911	2009911	2009911	2009911	2009911	2009911
Qishloq xo'jaligi yerlari	(ming) gektar	270800	272500	274100	276300	277877	278900	280100
Sug'oriladigan ekin yerlari	(ming) gektar	227600	230200	233000	235800	238394	240500	243000
Lalmi ekin yerlari	(ming) gektar	43200	42300	41000	40200	39483	38400	37100
Tomorqa yerlari	(ming) gektar	58900	60100	61200	62300	63195	64300	65700
Ko'p yillik daraxtzorlar	(ming) gektar	29800	31200	32500	33300	34215	35600	37200
Yaylovlar	(ming) gektar	829300	828000	826700	825400	824565	823900	823200
Bo'z yerlar	hektar	460	420	380	340	292	260	230
O'rmonzorlar	(ming) gektar	226900	228400	230100	231900	233283	235100	237400

Manba: Muallif tomonidan surxon stat.uz va statistik baholash va trend tahlili asosida tuzilgan.



3-rasm. Surxondaryo viloyati yer fondi ko'rsatkichlari o'zgarish dinamikasi

Shuningdek, viloyat qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligini 2015-2025 yillar oralig'ida rivojlanish jarayonlari, ishlab chiqarish hajmi, o'sish sur'atlari hamda respublika iqtisodiyotidagi ulushi o'rganilgan (4-jadval).

4-jadval

Surxondaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari etishtirish hajmi (joriy narxlarda)

Yil	Yetishtirilgan mahsulotlar hajmi (mlrd so'mda)	O'sish sur'ati (%)	Respublika iqtisodiyotidagi ulushi (%)
2015	8354,3	100,0	8,4
2016	8896,4	106,5	7,7
2017	11837,2	133,1	8,0
2018	15394,4	130,0	8,2
2019	18 322,3	104,6	7,7
2020	19 921,7	105,6	7,7
2021	24 016,4	104,6	7,6
2022	28 027,2	102,5	7,7
2023	33 655,0	103,7	7,9
2024	36 655,9	103,1	7,8
2025	42 272,0	103,8	-


Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi –rasmiy hisobotlar (2019-2025).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2015-2025 yillar davomida Surxondaryo viloyatining qishloq xo'jaligi tarmog'i barqaror o'sib borgan. 2020-2021 yillarda yuqori o'sish sur'atlari (105 % dan ortiq) kuzatilgan bo'lib, bu davrda chorvachilik, bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklarining rivojlanishi asosiy omil



bo'lgan. 2024 yil yakuniga ko'ra, viloyat qishloq xo'jaligi hajmi 36,6 trln so'mga yetgan, bu esa 2018 yilga(14 705,4 trln) nisbatan 2,5 barobar ko'pdir. Viloyatning respublika umumiy hajmidagi ulushi 7,8 % atrofida bo'lib, bu natija tarmoqning milliy miqiyosdagi barqaror ahamiyatini tastiqlaydi.

2015–2025 yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xo'jalik toifalari bo'yicha ishlab chiqarish strukturasida katta o'zgarishlar qayd etilgan. 2025 yil yakunlariga ko'ra, umumiy hajmning 65,5 foizini dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 28,2 foizini fermer xo'jaliklari, 6,3 foizini esa qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkilotlar tashkil etgan. Fermer xo'jaliklarining ulushi oldingi yillarda pasaygan bo'lsa-da, davlat qo'llab-quvvatlovi, yer ajratish mexanizmining takomillashuvi va kredit-subsidiya tizimining kengayishi tufayli 2023–2025 yillarda bu ko'rsatkich biroz ko'tarilgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi 2015–2023 yillarda o'sgan, biroq 2024–2025 yillarda kamaygan. Bunga fermer xo'jaliklari va tashkilotlar ulushining ortgani sabab bo'lgan. Qishloq xo'jaligi tashkilotlarining ulushi 2015-yildagi 4,5 foizdan 2025-yilda 6,3 foizgacha muttasil o'sib borgan. Bu agrokla sterlar, kooperatsiyalar va yirik investitsion loyihalarning rivojlanishi bilan izohlanadi (4-rasm).



Manba: stat.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

4-rasm. Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xo'jalik toifalarining ulushi, (%)

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsadkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi. Umuman olganda tahlil qilinayotgan davrda ishlab chiqarish tarkibida institutsional o'zgarishlar yuz bergan bo'lib, yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar ulushi ortgan, kichik xo'jaliklar(dehqon va tomorqa xo'jaliklari) ulushi esa nisbatan qisqargan. Bu jarayon qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish siyosati bilan bevosita bog'liq.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Dehqonchilik ulushining ortishi viloyatda ekin maydonlarining kengayishi, intensiv agrotekhnologiyalarning joriy etilishi va bozor talablarining oshishi bilan bog'liq. Chorvachilik ulushining kamayishi esa resurslar qayta taqsimlanishi, yem-xashak bazasining o'zgarishi va investitsiya oqimlarining boshqa yo'nalishga yo'naltirilishi bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуғаниев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти.–Т.: Адабиёт жамғармаси. 2007. –340 б.
2. Қудратов Ғ.Х. Бозор иқтисодиёти шароитида Ўзбекистон ғаллачилигидаги иқтисодий мунасобатлар. Монография. –Т.: Иқтисод-молия. 2006. –Б. 250.
3. Очилов С., Эргашева С. Қишлоқ ва сувхўжалиги статистикаси. Ўқувқўлланма. –Т., 2008. –192 б
4. Жумаев К.Х. Агросаноат мажмуини ривожлантиришнинг инновацион омиллари *“XXI аср: фан ва таълим масалалари” и.э.ж. №3, 2018 йил.*
5. Stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**